

### Kutilayotgan natijalar:

- O'zbekistonda yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi ekinlarining xilma-xilligi haqida tasavvurga ega bo'ladi;
- ijodiy fikrlash doirasini kengaytirish, mayda qo'l motorikasini rivojlantirish;
- rang va shakl tushunchasini idrok qilish va rivojlantirish;
- ishchanlik, sabr-toqat va aniqlikni tarbiyalash.

## 3-dars: KUZGI YAPROQLAR

### Dars maqsadlari:

- o'quvchilarga turli xil daraxt barglarining shakllari haqida tushuncha berish;
- barglardan andoza va qolip sifatida foydalanish ko'nikmasini shakllantirish;
- akvarel bo'yoglaridan foydalanib kompozitsiya yaratish mahoratlarini rivojlantirish.

### Kerakli materiallar:

darslik, gadget, akvarel bo'yoqlar, A4 o'lchamli qog'oz, mo'yqalam, oddiy qalam, suv idishi, gubka, qaychi.

## DARSNING TEKNOLOGIK XARITASI

### 1. Tashkiliy qism (5 minut)

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi, davomatni tekshiradi

### 2. Kirish qismi (5 minut)

O'quvchilardan uyga berilgan vazifani so'rash, tayyorlab kelgan ishlarini ko'rgazmali baholash. Dars mavzusini e'lon qilish.

### 3. Asosiy qism (25 minut)

O'qituvchi amaliy mashg'ulotni boshlashdan oldin o'quvchilarga "namlangan qog'oz" texnikasi haqida tushuntiradi: bu texnikada suv yoki bo'yoq bilan suvni ko'proq qilib aralashtirib, qog'oz yuzasiga surutiladi. Qog'oz yuzasi suv yoki suvli rang bilan qoplanadi. O'qituvchi bunday texnikada ishlangan namuna ishlaridan ko'rsatadi. "Akvarel" bo'yog'i haqida tushuncha berish: akvarel so'zi – "suv bilan aralashtirilgan bo'yoqlar" degan ma'noni anglatadi. Shundan so'ng o'quvchilar darslikning 65-betida berilgan barglar andozasi yoki qoliplaridan tayyorlangan tarqatmalardan (oldindan tayyorlangan ham bo'lishi mumkin) birini tanlaydilar va ularni kesib oladilar. O'qituvchi andoza yoki qolib asosida kuzgi barglarni ishlash bosqichini ko'rsatib beradi:

1. Andoza yoki qolipdan foydalanib, barglarni qog'ozga qalam bilan tushirib olinadi.
2. Akvarel bo'yoqlardan mos ranglar tanlanadi.
3. Qog'oz yuzasi suv bilan namlanadi. Ortiqcha suv gubka yoki paxta bilan olib tashlanadi.
4. Tanlangan rangni mo'yqalamda bir marta bosib, surtish yo'li bilan ranglanadi.
5. Tasvir qurigandan so'ng ingichka va qalin chiziqlari chizib chiqiladi.

#### 4. Darsni yakunlash. Refleksiya (5 minut)

Dars oxirida o'quvchilar bir-birlariga o'z ishlarini ko'rsatadilar. Agar ishlar yoqqan bo'lsa, bir-birlariga tabassum qilib javob beradilar. Uyga vazifa darslikning 8-betida berilgan "Kuzgi yaproqlar" tasvirini darsda o'rgangan ko'nikmalari asosida bo'yab keladilar. O'qituvchi tomonidan keyingi dars uchun turli xil daraxt barglaridan yig'ib olib kelish vazifa qilib beriladi.

#### Kutilayotgan natijalar:

- daraxt barglarining turli shakllari haqida tushunchaga ega bo'ladilar;
- tasvir ishlashning turli xil usullarini anglaydilar;
- akvarel bo'yoqlari bilan tasvir chizish ko'nikmalari shakllanadi;
- daraxt barglaridan andoza yoki qolip sifatida foydalanib, tasvir ishlashni o'rGANADILAR.

## 4-dars: KUZGI YAPROQLARNING TO'KILISHI

#### Dars maqsadlari:

- o'quvchilarda daraxt barglarining turli shakllari haqida tushunchalarini kengaytirish;
- barglardan bostirib ishlash (shtamplash usuli) ko'nikmasini rivojlantirish;
- tasviriy san'at orqali atrofdagi narsalarni idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish.
- 

#### Kerakli materiallar:

darslik, gadget, akvarel bo'yoqlar, A4 o'lchamli qog'oz, mo'yqalam, suv idishi.

## DARSNING TEKNOLOGIK XARITASI

### 1. Tashkiliy qism (5 minut)

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi, davomatni tekshiradi.

### 2. Kirish qismi (5 minut)

O'quvchilar uy ishlarini namoyish etiladilar va taassurotlari bilan bo'lischadilar. Yangi dars mavzusi e'lon qilinadi.

### 3. Amaliy ish (25 minut)

O'qituvchi o'quvchilar bilan birga turli shakldagi barglarni ko'rib chiqadi va ularni tavsiflashni taklif etadi:

1. Sodda yoki murakkab shakllar.
2. Barglarni shakllarga ajratish
3. Eng yoqtirgan shakllarini tanlash.

O'quvchilar olib kelgan barglaridan eng qiziqarlilarini tanlab olidilar va ularga bosqichma-bosqich bostirib ishlash usuli tushuntirilib ko'rsatiladi:

1. Bargning bir tomoni bo'yoq bilan ehtiyojkorlik bilan bo'yaladi.
2. Bargni bo'yalgan tomoni qog'oz yuzasiga bostirib qo'yiladi, ustidan salfetka bilan yengil bosiladi va qo'l bilan silab tekislanadi.
3. Kompozitsiya hosil qilish uchun bu harakat bir necha marta takrorlanadi.
4. Mo'yqalam bilan barg chiziqlari chizib olinadi.
5. Bo'yoqlar to'liq qurishi kutiladi.

### 4. Darsni yakunlash. Refleksiya (5 minut)

Dars yakunida o'quvchilar bir-birlariga o'z ishlarini ko'rsatadilar. O'quvchilarning ishlagan tasvirlari bir-birlariga yoqqan bo'lsa, ishlami almashishlari mumkin, agar ishlagan tasvirlari yoqmagan bo'lsa, o'quvchilar o'zlarida qoldiradilar.

Uy vazifasi sifatida o'quvchilarga turli daraxtlarning barglarini olib kelish topshirig'i beriladi.

#### Kutilayotgan natijalar:

- daraxt barglarining turli shakllari haqida tushunchaga ega bo'ladilar;
- barglardan bostirib ishlash (shtamp) usuli sifatida foydalanishni o'rganadilar;
- Tasviriy san'at orqali o'z fantaziyalarini tasvirlarda ifoda etishni bilib oladilar.